IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: BG15884687

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Qo`qon davlat universiteti rektori D.Sh. Xodjayeva
2025 yil 29- avgust

# “ JAHON MUSIQASI TARIXI” FANNING O`QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta`lim sohasi:** | 210000 | - | San`at |
| **Ta`lim yo`nalishi:** | 60211400 | - | Vokal san`ati (an`anaviy xonandalik) |

**Qoqon 2025**

| Fan/modul kodi<br>JMT 1205 | O`quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>1 | ECTS-Kreditlar<br>3 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>**Majburiy** | **Ta`lim tili**<br>**O`zbek** | | **Haftadagi dars Soatlari**<br>**2** |

| 1 | Fanning nomi<br><br>JAHON MUSIQASI TARIXI | Auditoriya mashg`ulot-lari (Soat) | Mustaqil Ta`lim (soat) | Kurs ishi | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 120 | 120 | 30 | 270 |

**I.**

**Fanning mazmuni -** fanni o‘qitishdan maqsad talabalarda musiqiy ifodalilik ka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobilyatini hosil qilish; talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to‘g‘ri yo‘naltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish; talabalarni musiqa o‘qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Musiqa san`ati yirik davrlanishning tasnifi va sharhi, shuningdek, mazkur davrlarda ijod qilgan ilg`or san`atkorlar va kompozitorlarning ijodiy faoliyati hamda nodir asarlar tahlili qilishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga chet el musiqasi madaniyati tarixiy taraqqiyoti, asosiy yo‘nalishlari, janr va shakllari haqida ma’lumot berish, jahon klassik musiqasiga xos bo‘lgan badiiy ifoda vositalarini va turli xil janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga o‘rgatish, g‘arbiy Yevropa va rus kompozitorlarining ijodiyoti hamda badiiy jihatdan ahamiyatli asarlari bilan tanishtirish, har bir kompozitorning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarini yoritib berish;

Garb musiqa san`ati tarixiga oid ma`lumotlarni, xususan musiqa san`atining qadimdagi davrlardan tortib to XVIII asrga qadar rivojlanish pallasini qamrab,yoritib berish.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-MODUL**. Yevropa musiqa madaniyati.

**1 – mavzu: Kirish. Fanning maqsad va vazifalari**.

**Musiqa san'atining paydo bo‘lishi. Qadimgi va Antik davr.**

Musiqaning kelib chiqishi. Birlamchi sinkretizm. Musiqaning hayotdagi o‘rni. Musiqaning kosmik, teosofik, filosofik va sotsial qarashlar bilan bog‘liqligi. San'atning rivojlanishida antik madaniyatning ahamiyati. Grek afsonalari. Gomer eposi, qadimgi grek tragediyalari. Ellin musiqa madaniyati.

**2 – mavzu XVII–XVIII asr Yevropa musiqa madaniyati. XVII asrda opera. janri shakllanishi va rivojlanishi XVII asr cholgu musiqasi**

Italiya operasi paydo bo`lishi. K.Monteverdi, ariyalar turlari. A.Vivaldi “Yil fasllari” Alesandro Skarlatti, D. Friskobaldi, J. F. Ramo ijodi. Opera – seriya, opera buffa rivojlanishi. Organ musiqasi. Cholg`u musiqasi.

| | |
|---|---|
| | **3 - mavzu. I.S.Bax ijodi.**<br>XVIII asr Yevropa mamlakatlari cholg‘u musiqasi. VIII asr musiqa madaniyati tarixida I.S.Bax musiqasining axamiyati. Kompozitorning ijodiy yo‘li. Bax ijodida dinning ahamiyati. Veymar davri va kompozitorning melodik uslubining shakllanishi. Kyotten davri va kamer cholg‘u musiqasi rivojlanishi. Leypsig davri - I.S.Bax ijodining cho‘qqisi.<br>Kompozitor ijodidagi obrazlar, g‘oyalar va polifonik uslub. Klavir musiqasi.1994 https://archive.org/search?query=date:1994<br>**4-mavzu. G. F. Gendel ijodi**..<br>XVIII asr musiqa madaniyati tarixida G.Gendelmusiqasining axamiyati. Kompozitor ijodida opera va oratoriya janrlari.<br>https://archive.org/search?query=date:1994<br>**5-mavzu. Klassitsizm davri** .<br>K.V.Glyuk opera islohoti. Klassitsizm. Vena klassik maktabi. K.V.Glyuk opera islohoti tamoyillari.<br>**6-mavzu. I.Gaydn ijodi.**<br>Y.Gaydn ijodini davrlashtirish: Ijodining birinchi davri (1751-1761); Ijodining ikkinchi davri (1761-1791); Ijodining uchinchi davri (1791-1801); Kompozitor ijodidagi asosiy janrlar. Gaydn musiqasining xalqchilligi. Gaydn ijodida sonata-simfonik siklning rivoji.<br>**7-mavzu. V.Motsart ijodi.**<br>V.A.Motsart ijodini davrlashtirish kompozitor musiqasining uslubiy xususiyatlari. Motsartning opera estetikasi, uning Glyuk opera estetikasidan farqi. Opera janrlarining o‘zaro ta’siri. Simfonik ijodi, fortepiano ijodi. Rekviyem.https://www.academia.edu/19847927/W_A_Mozart_His_life_and_work_An_annotated_bibliography<br>**8 -mavzu. L.Betxoven ijodi.**<br>L.Betxoven ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati.Ijodiy davrlari: Bonn davri (1770-1792); birinchi Vena davri (1792-1802); Yetuk ijodiy davri (1802-1812); Ijodining so‘ngi davri (1812-1827); Fortepiano ijodi. Simfonik ijodi.<br>**9-mavzu. Romantizm. F.Shubert ijodi**.<br>Musiqiy romantizm san’ati. Shubert musiqasining g‘oyaviy mazmuni. Kompozitorning hayoti va ijodiy yo‘li. Ijodining tavsifi.Vokal lirikasi. Vokal sikllari.<br>**10- mavzu. R.Shuman ijodi.**<br>R.Shuman ijodining asosiy mavzu va obrazlari. Fortepiano ijodi. Miniatyuralar sikli. “Karnaval”. Vokal lirikasi yangi jihatlari. Vokal sikllari.<br>**11- mavzu. F.Shopen ijodi.**<br>Shopen ijodini davrlashtirish. Bolalik va o‘smirlik yillari.Ijodidagi yetuklik davri. Parij (1830-1848), London, Manchester, Shotlandiyadagi faoliyati. Ijodiga tavsif. Fortepiano ijodi.<br>**12-mavzu. F. List ijodi**<br>F.List ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati. Kompozitorning ijodiy yo‘li. Ijodini davrlashtirish. List fortepiano musiqasini |

| | |
|---|---|
| | ng ahamiyati. Fortepiano musiqasining simfonik talqini. Fortepiano uslubining janriy hilma-xilligi.Transkripsiyalar. Etyudlar. "Sargardonlik yillari"sikli. Si-minor sonatasi. Simfonik ijodi. https://soundryo.com/articles/franz-liszt-musical-legacy/<br>**13-mavzu. J.Verdi ijodi.**<br>Verdi ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati.Kompozitor ijodini davrlashtirish. Verdining opera g'oyalari,dramaturgiya tamoyillari. «Rigoletto», «Traviatta», «Aida» operalari.<br>**14-mavzu. J. Bize ijodi.**<br>J.Bize ijodining asosiy obrazlar doirasi va mavzulari.J.Bizening estetik qarashlari. Opera «Karmen». Musiqiy dramaturgiya tamoyillari. A.Dodening "Arlezianka" dramasi uchun yozilgan musiqa.<br>**15-mavzu. Impressionizm musiqada**.<br>K.Debyussi, M.Ravel ijodlari<br>Fransuz san'ati tarixida impressionizmning ahamiyati.Impressionizmning tasviriy san'at va musiqadagi ko'rinishi. M.Ravel va K.Debyussi ijodlari.<br>**II – MODUL.** Rus musiqa madaniyati.<br>**16-mavzu. XIX asrning birinchi yarmidagi rus musiqa madaniyati.**<br>XIX asr birinchi yarmidagi rus musiqasining shakillanishi. Rus romantizm hususiyatlari. Teatr janrlarining rivojlanishi. XIX asr boshlaridagi rus operasi va uning xususiyatli belgilari.Vokal musiqasi. Shahar romansi. Rus maishiy romanslar xususiyatlari.Romanslarning rus she'riyati bilan aloqasi. Rus musiqasidaA.S.Pushkin ijodining ahamiyati. https://vk.com/wall-99339872_6955<br>**17-mavzu. M.I.Glinka ijodi.**<br>M.I.Glinka rus klassik musiqasining asoschisi. Rus musiqasi asosiy janrlari shakllanishidagi Glinkaning tarixiy ahamiyati.Ijodining halqchilligi. Opera ijodi. Xalq tarixiy musiqali dramasi «Ivan Susanin» va afsonaviy epik ertak «Ruslan va Lyudmila» birinchi rus operalari. Glinkaning simfonik va Kamer cholg'u asarlari: «Kamarinskaya» va «Ispancha uvertyurasi».Glinka va Pushkin. Glinka ijodining musiqiy tili. Glinkaning xayoti va ijodiy yo'li. https://vk.com/wall-99339872_6955<br>**18-mavzu. A.S.Dargomijskiy ijodi.**<br>Dargomijskiy M.I.Glinka an'analarining davomchisi. Ijodiyyo'li. Dargomijskiy ijodining tavsifi. Badiiy tamoyillari. Dargomiijskiy asarlarining ijtimoiy-tanqidiy g'oyasi. Opera ijodi. Dargomiijskiy – rus klassik musiqasida psixologik opera janrni asoschisi. «Suv parisi» - rus musiqada birinchi lirik-psixologik opera namunasidir. «Tosh mexmon» – rechitativ asosida yozilgan operasi.<br>**19-mavzu. XIX asrning II yarmida rus musiqa madaniyati.**<br>XIX asr ikkinchi yarmidagi rus musiqa madaniyati – eng rivojlangan davr. Musiqiy-ijtimoiy xayoti. Rus musiqa jamoasi (RMJ), Peterburg (1859) va Moskva (1860) konservatoriyalari,Bepul musiqiy maktab va ularning faoliyati. «Qudratli to'da» kompozitorlarining ijodidagi obrazlar va syujetlar, vatanparvarlik mavzusi, vatan g'oyasi, xalq turmushi, tarixiy syujetlar, |

| | |
|---|---|
| | afsonalar, ertaklar. Opera san'atining rivojlanishi. Rus simfonizm jihatlari. Rus klassik simfoniya, syuita, simfonik poyema, fantaziya, uvertyura janrlari. Chaykovskiyning simfonik va kamerasarlari, opera va baletlari XIX asr jahon musiqasi taraqqiotidamuhim bosqich sifatida. Rus ijrochilarning muvaffa-qiyatari(A.Lavrovskaya,Yu.F.Platonova, F.I.Stravinskiy vaN.G.Rubinshteylar, E.F.Napravnik). V.V.Stasov (1824-1906) va uning targ'ibotchilik faoliyati.<br>**20-mavzu. M.P.Musorgskiy ijodi.**<br>M.P.Musorgskiy – tanqidiy realizm yo'na-lishi namoyandasi.Musorgskiyning ijodiy estetikasi, novatorliligi. Uning xayoti vaijodiy faoliyati.Opera ijodi. Xalq obrazi.Opera «Boris Godunov» - xalq musiqiy dramasi. Vokal ijodi. "Ko'rgazmadan rasmlar"fortepiano sikli. Musorgskiy ijodining axamiyati.<br>**21-mavzu. A.P.Borodin ijodi.**<br>A.P.Borodin – kompozitor, kimyo sohasi olimi, dirijor,ijtimoiy arbob,Musiqiy tanqidchi. Xayoti va ijodiy yo'li. Kompozitor ijodi tavsifi. «Knyaz Igor» operasi.Simfonik ijodi. Romanslari. https://vk.com/wall-99339872_6955<br>**22- mavzu. N.A.Rimskiy-Korsakov ijodi.**<br>N.A.Rimskiy-Korsakov kompozitor, pedagog, dirijor, jamoat arbobi. Rimskiy-Korsakovning xayoti va ijodiy yo'li. Ijodiy tavsifnomasi.Opera ijodi. Opera syujetlari, opera janrlarining rang-barangligi. «Pskovlik ayol» - xalq tarixiy opera. «Qor qiz» - ertak operasi. Simfonik asarlari. «Shaxrizoda» simfonik syuitasida sharq musiqasi ifodalanishi. Pedagogik va ilmiy-publitsistik faoliyati. Rimskiy-Korsakov ijodining axamiyati.<br>**23- mavzu. P.I.Chaykovskiy ijodi.**<br>Chaykovskiyning jahon musiqa madaniyatida o'ziga xos o'rni. «Go'zallik-bu xayotdir» kompozitor shiori. Chaykovskiyning badiiy printsiplari. Xayoti va ijodiy yo'li. Asarlarida rus xalqi turmushi,tabiatning aks ettirilishi. Opera ijodi. «Pikovaya dama» operasi. Simfonik ijodi. 6- simfoniya. Romanslar. Chaykovskiy ijodining axamiyati.<br>**24- mavzu. P.I.Chaykovskiy balet ijodi.**<br>P. I. Chaykovskiy ijodida devertisment. " Qarsildoq", "Oq qush ko`li baleti".<br>**25- mavzu. Rus kompozitorlarning turkumli asarlar ijodi.**<br>P. I. Chaykovskiy ijodida " Yil fasllari", " Bolalar albomi", M. Musorgskiy " Kurgazmadan suratlar".<br>**26-mavzu. A.N. Skryabin ijodi**.<br>A.N. Skryabin-kompozitor, pianinochi. Musiqiy tilining novatorliligi. Ijodining tadrijiy rivojlanishi. Ijodiy tasifnomasi. Fortepiano ijodi. Skryabinning ijodiy falsafasi. Simfonik ijodi. Skryabin ijodining axamiyati.<br>**27- mavzu. S.V. Raxmaninov ijodi**<br>S.V.Raxmaninov - yirik kompozitor, buyuk pianinochi va dirijor. Uning xayoti va ijodiy yo'li. Faoliyatining ko'p qirraligi. Uning asarlari barcha pianino ijrochilar repertuarida. Opera, xo'rlar, simfonik orkestr, kamer cholg'u asboblar va fortepiano uchun asarlari - jahon klassik musiqa merosidir. Opera ijodi. «Aleko» operasi.Simfonik ijodi. «Simfonik raqslar». Raxmaninov ijodining axamiyati. |

**28- mavzu: S.S. Prokofev ijodi.**

S.S.Prokofev musiqiy- sahnaviy asarlari.

Musiqiy teatrdagi izlanishlar. S. Prokofyev opera va baletlari. Eksperimentdan an’anaga tomon harakat. S. S. Prokof'evning serqirra ijodiy faoliyati. Musiqiy- sahnaviy asarlari. “Semyon Kotko”, “Duenya”, “Uch apelsinga bo‘lgan muhabbatga”, “Urush va tinchlik” va b.

**29- mavzu: D.D. Shostakovich simfonik ijodi.**

20-yillar simfonizm masalalari. D.Shostakovich simfoniyalarining obrazlar xilma-xilligi. 30-yillar simfonik musiqasida Shostakovichning o‘rni. D.Shostakovichning To‘rtinchi, Beshinchi, Oltinchi simfoniyalari.Ikkinchi jahon yillarida musiqa. 7-simfoniya “Leningrad”.

**30- mavzu: A.I. Xachaturyan. Skripka va orkestr uchun konsert. Baletlari.**

XX asr musiqa madaniyatida 40-50 yillar ahamiyati. Urush yillari voqealari, qurbon bo‘lganlarning xotirasi M.Gnesinning “Qurbon bo‘lgan bolalarimiz xotirasiga bag‘ishlov” triosi, N.Myaskovskiyning To‘qqizinchi kvartetida, ya’ni kamer-instrumetal asarlarda. A.I. Xachaturyan ijodiy faoliyati. Kontsertlari. Baletlari.

**III. Seminar mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. G.Gendel oratoriyalari. 1994 https://archive.org/search?query=date:1994
2. I.S.Bax organ va klavir musiqasi. Messa h-moll. https://archive.org/search?query=date:1994
3. K.V.Glyuk “Orfey” operasi. Y.Gaydn simfonik ijodi. Oratoriyalari
4. V.A. Motsart opera ijodi va simfoniyalarihttps://www.academia.edu/19847927/W_A_Mozart_His_life_and_work_An_annotated_bibliography
5. L.Betxoven simfonik va fortepiano ijodi
6. F.Shubertning qo‘shiq va balladalari. Vokal sikllari.
7. Dj.Rossini opera ijodi.
8. K.M.Veber opera ijodi.
9. G.Berlioz opera va simfonik ijodi.
10. R.Shuman fortepiano va vokal ijodi.
11. F.Shopen fortepiano ijodi
12. F. List simfonik va fortepiano ijodi.
13. D.Verdi opera ijodi.
14. R.Vagner opera ijodi.
15. J. Bize opera ijodi.
16. E.Grig fortepiano ijodi.
17. K.Debyussi
18. M. Ravel – Impressionist-kompozitorlarning fortepiano

| | |
|---|---|
| | va simfonik ijodlari.<br>19.XIX asrning rus musiqa madaniyati.<br>20. M.I.Glinka opera va simfonik ijodi.<br>21. A.S.Dargomijskiy opera ijodi. Romanslari.<br>22.“Qudratli to‘da” to‘garagi faoliyatining ahamiyati<br>23.M.P.Musorgskiy opera ijodi. “Ko‘rgazmadagi rasmlar”.Romanslari.<br>24. A.P.Borodin opera ijodi. “Bohodirlar” simfoniyasi<br>25.N.A.Rimskiy-Korsakov opera va va simfonik ijodi.<br>26.P.I.Chaykovskiy fortepiano va simfonik ijodi.<br>27.P.I.Chaykovskiy opera va baletlari.<br>28.A.N.Skryabin simfonik ijodi.<br>29. S.V.Raxmaninov opera ijodi. Fortepiano musiqasi.<br>30. A.I. Xachaturyan ijodiy faoliyati. Kontsertlari. Baletlari.<br>Seminar mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriya-da bir akademik guruhga bir professoro‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**<br>Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:<br>1. I.S.Bax ijodida Passion va koncherto grosso janrlari.Asarlaridan parchalar ijro etish<br>2. K.V.Glyuk. “Orfey” operasi. Operasidan parchalar ijro etish.<br>3. Y.Gaydn “Yil fasllari” Asarlaridan parchalar ijro etish<br>4. V.Motsart fortepiano asarlari va konsertlari. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>5. L.Betxoven uvertyuralari. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>6. F.Shubert, R.Shuman asarlaridan parchalar ijro etish<br>7. F.Shopen asarlaridan parchalar ijro etish<br>8. K.M.Veber, Dj.Rossini, G.Berlioz asarlaridan parchalar ijro etish<br>9. F. List konsert sayoxatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>10. R.Vagner va J.Verdi Asarlaridan parchalar ijro etish<br>11. J.Bize asarlaridan parchalar ijro etish<br>12. Ye.Grig Asarlaridan parchalar ijro etish<br>13. K.Debyussi, M. Ravel Asarlaridan parchalar ijro etish<br>14. A.Alyabev, A.Varlamov, A.Gurilyov romanslari<br>15. M.I.Glinka romanslari. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>16. A.S.Dargomijskiy asarlaridan parchalar ijro etish<br>17. M.P.Musorgskiy simfonik ijodi. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>18. A.P.Borodin asarlaridan parchalar ijro etish<br>19. N.A.Rimskiy-Korsakov satirik operalari. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>20. P.I.Chaykovskiy fortepiano. Asarlaridan parchalar ijro etish<br>21. S.V.Raxmaninov romanslari. Asarlaridan parchalar ijro etish |

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan prezentatsiya, videolar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**V. Kurs ishini tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

« Jahon musiqa tarixi» fani bo‘yicha bajariladigan kurs ishi talabalarda tanlagan mavzusi bo‘yicha adabiyotlarni. ya’ni darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar,ilmiy maqolalarni izlab topish va ular bilan ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bu jarayon talabaning ilmiy metodik tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantiradi.Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilish tayyorgarligin oshiradi va mustaqil ijodiy ishlari faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilish, hamda bevosita pedagogik jarayonda uni qo‘llay olishdan iborat.

Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish ya’ni, umumumiy o‘rta ta’lim va musiqa maktablarida pedagogik jarayonga bog‘liq holda ishlab chiqiladi va har bir talabaga alohida shaxsiy topshiriq beriladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi kurs ishini taqsimlash va tushuntirishuchun o‘quv rejasida ajratilga n soat ichida kurs ishining mohiyati,tadqiqot olib borish usullari va adabiyotl ar bilan ishlash, ya’ni ulardamasalaning qo‘yilishi, nima ish qilinganligi, ularn ing mavjud ishlardan farqi, taklif yoki tavsiya qilinayotgan usullarni ajrata olish haqida batafsil tushuntirish nazarda tutiladi.

Kurs ishi:

− talabada tanlangan mavzu bo‘yicha o‘z nazariy bilimini chuqurlashtirishi:

− psixologik-pedagogik, metodik va o‘quv materiallarini tahlil qilish malakasini o‘zlashtirshi;

− pedagogik eksperimentni rejalashtirishi, tayyorlashi va o‘tkazishi;

− eksperiment natijalariga ishlov berish malakasini egallashi;

− nazariy va eksperiment natijalarini umumlashtirish malakasini egalashga imkon yaratadi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajarilgan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi, shuning uchun ham mavzuning dolzarbligi va bajarilgan ishning sifatiga qarab talabalarning ilmiy anjumanlariga tavsiya etilishi yoki bo‘lg‘usi diplom ishiga asos qilib olishiga maslahat qilinishi mumkin.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va o‘quv yilining boshida shu o‘quv yili uchun tasdiqlanadi. Talaba o‘zini qiziqtirgan mavzuni tanlab olgandan so‘ng, bu mavzu bo‘yicha ish rejasini tuzadi va uni tasdiq-lash uchun kafedraga taqdim etadi.

Talabaning tanlagan kurs ishi mavzusi tasdiqlangandan so‘ng kafedra unga ilmiy rahbar tayinlaydi. Talaba kurs ishini o‘z ilmiy rahbarining bevosita rahbarligida bajaradi.

**Kurs ishi mavzulari:**

XX asr musiqasining stilistik xilma – xilligi: impressionism.

Chaykovskiyning jozibador musiqa asarlari xususiyatlarini tahlil qilish.

| | | |
|---|---|---|
| | | Kamer musiqasi: janrlari va shakllari.<br>Rimskiy- Korsakov operasi: an`ana muamollari va novatorligi.<br>O`zbek qo`shiqlarining janr tasnifi.<br>Antik davr musiqiy ijro estetikasi.<br>Klod Debyusi ijodining uslubi va o`ziga hos xususiyatlari.<br>V. Mostart ijodining uslubi va xususiyatlari.<br>Romantizm davridagi instrumental musiqa, F. Shopen ijodi misolida.<br>Barokko davrining instrumental musiqasi, A. Vivaldi ijodi misolida.<br>Romantizm davridagi instrumental musiqa, R.Shuman ijodi misolida<br>Romantizm davridagi instrumental musiqa, F. Shubert ijodi misolida<br>XX asr impressionizm davridagi instrumental musiqa, M. Rravel ijodi misolida<br>XX asr impressionizm davridagi instrumental musiqa, K. Debyussi ijodi misolida.<br>D.D. Shostakovich ijodida simfonik janrning rivojlanishi.<br>F. Shopen asarlarida romantic improvizatsiya xususiyatlari.<br>F. List asarlarida romantik improvizatsiya xususiyatlari.<br>V. Motzartning simfonik ijoi klassik davr kontekstida.<br>F.Shopenning fortepiano musiqasining o`ziga hos xususiyatlari: romantic noktyurnlar tahlili.<br>Chaykovskiy ijodida opera janrining rivojlanishi.<br>Musiqada barokko: Bax fugalari tahlili.<br>K. Debyssi va M Ravel musiqa asarlariga impressionizmning ta`siri.<br>Simfoniya evoluytsiyasi Yo.Gaydndan L.Bethovengacha.<br>Rus klassik kompozitorlari ijodida milliy xususiyatlarning namoyon bo`lishi.<br>A. S.Dorgamijskiy musiqasida ispan romansi.<br>Rus kompozitorlarining opera asarlarida polifoniya<br>D.B.Kabalevskiyning musiqiy-pedagogic konseptsiyasida an`analar va innovatsiyalar.<br>Italiya vocal maktabining o`ziga hos xususiyatlari. Italiya operasining rivojlanish bosqichlari.<br>Barokko davri dasturiy cholg‘u musiqasining manbaalari va rivojlanishi<br>Chaykovskiyning “Iolanta” operasida Iolantaning garmonik qiyofasi.<br>Shubert ijodida instrumental miniatyura janri.<br>Motsart ijodida opera janrining transformatsiyasi.<br>Romantic kompozitorlar ijodining g`oyaviy va badiiy-obrazli mazmuni. (J. Bize)<br>Bethovening sonata ijodi. № 6 sonata misolida.<br>Bethoven konsertlari.<br>XIX asr oxiri XX asr boshi o`zbek romansi.<br>Rimskiy korsakovning “Qorqoz” operasini calendar va marosim folkloroning timsoli nuqtai nazardan o`rganish<br>P.I.Chaykovskiyning “Evgeniy Onegin” operasidagi Tanyana Larina obrazi. |

Musorgskiy vocal uslubinng o`ziga hos xususiyatlari.
Chaykovskiy fortepiano ijodiyotining asosiy xususiyatlari.
Pletnyovning fortepiano transkripsiyalarining janr - uslubiy xususiyatlari
Yangi Vena maktabi vakillari ijodida musiqiy ekspressionizmning o`ziga hos jihatlari
I.S.Baxning klavir musiqasi
I.S.Baxning organ ijodiyoti
G.F.Gendel oratoriyalari.
Musiqiy klassitsizm.
K.V.Glyuk – XVIII asr operasi isloxotchisi.
Y.Gaydn. Simfoniya janrining shakllanishi
Y.Gaydn jratoriyalari
V.A.Motsartning simfonik ijodiyoti.
L. Betxovenning fortepiano musiqasi.
Qahramonaviy-dramatik mavzudagi L.Betxoven simfonik musiqasi
Musikiy romantizm.
F. Shubert. Birinchi romantik-kompozitorning «quvonch va qaygʻulari».
F.Shubertning vokal lirikasi.
R.Shuman fortepiano ijodi.
F.Shopen – polyak klassik musiqaning qalbi.
K.M.Veber – romantik opera janrining yaratuvchisi.
Dj.Rossini va italiyan opera.
G.Berlioz va uning «fantastik» ijodiyoti.
F.List – Vengeriya musiqasining klassigi.
Dj.Verdi operalari – musiqiy realizm choʻqqisi.
R.Vagner – XIX asr operasi buyuk islohotchisi.
J.Bize. Shuxrat sari safar.
E.Grig – Norvegiya klassik musiqasining asoschisi.
Musiqiy impressionizm.
K.Debyussining ijodiy kiyofasi.
M.Ravel ijodiy portreti.
M.I. Glinka – rus klassik musiqasi asoschisi.

**VI. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Talaba bilishi kerak:

- chet el musiqasi madaniyatinig taraqqiy tarixini, asosiy yoʻnalishlari va uslublarini; turli davlatlar musiqiy madaniyatini, milliy kompozitorlik maktablar va ularning namoyondalarini; atoqli chet el kompozitorlar ijodiyotini;

gʻarbiy Yevropa va rus kompozitorlarining ijodidagi asosiy janr va shakllarni, mashhur asarlarini; fanga oid asosiy va qoʻshimcha adabiyotlar;

- jahon musiqasi tarixi, uning xalqlar musiqa va madaniyatining ajralmas qismi ekanligini; qadimgi, oʻrta va yangi asrlarda taraqqiyot tarixini; turli tarixiy davrlarda musiqa madaniyati xususiyat-larini, cholgʻularini, ular haqida tarixiy ma’lumotlarni;

musiqiy ilim rivojlanishiga hissa qoʻshgan buyuk allomalarni va ularning

| | |
|---|---|
| | ilmiy izlanishlarining mazmunini; maqom va boshqa turkum asarlarni, xalq ommaviy janrlari, vokal va cholgu musiqasi, musiqiy-sahnaviy janrlar, taniqli bastakorlar ijodi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)<br>• chet el musiqasidagi asosiy yo‘nalishlar va uslublarni, janr va shakllarni, milliy kompozitorlik maktablarga xos xususiyatlar, ifodali vositalarni o‘rga-nish, farqlash va ular haqida gapirib berish; kompozitorlarning ijodiy yo‘lini jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bog‘lab unga baho bera olish; asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; mashhur musiqiy asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asosiy, qo‘shimcha o‘quv, ilmiy va notali adabiyotlardan mustaqil foydalanish va amalda qo‘llash;<br>musiqasi taraqqiyotidagi turli tarixiy davrlarda musiqa madaniyati xususiyatlarini, cholg‘ularini farqlash, kompozitorlarning yaratgan merosini o‘rganish va ular xaqida gapirib berish; turli janrdagi asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan, notali adabiyotlardan mustaqil foyda-lanish va amalda qo‘llashni bilishi va ulardan foydalanaolishi;(ko‘nikma)<br>• « jahoh musiqa tarixi» faniga oid bilimlar va ko‘nikmalarni amaliy musiqiy-pedagogik faoliyatida tatbiq qilish, musiqiy-targ‘ibot ishi va kontsert-ma’ruza faoliyatini tashkil qilishda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)<br>**VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>**VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test ishni topshirish.<br>**IX.Asosiy adabiyotlar**<br>1. Galushenko I.G. Istoriya muziki narodov mira. Vip.3. – T., “Musiqa”. 2008. (www/conservatory.uz.)<br>2. Madrimimov B.X Musiqa tarixi Chet el musiqa tarixi T. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/10/NamDU-ARM-5229-Musiqa_tarixi<br>3. Qosimxo‘jayeva S.B. Jahon musiqasi tarixi (XX asrning birinchi yarmi rus musiqa madaniyati) – T., “Musiqa”. 2019.<br>4. Qosimxo‘jayeva S.B. Jahon musiqasi tarixi (XX asrning ikkinchi yarmi rus musiqa madaniyati) – T., “Musiqa”. 2020.<br>5. Akbarov Musiqa lug`ati. T 1992 |

| | |
|---|---|
| | 6. O.K. Abdulayev  Estirada va ommaviy tomoshalar tarixi. T 2015.<br>7. Trigulova A. X. Musiqa tarixi (Chet yel musiqa tarixi). Darslik.Tos'hkent, 2021.elektron<br>8. Trigulova A.X. Xorijiy musiqa adabiyoti. Tos'hkent, «Ilmziyo»,2009. elektron<br>9. Urmanova L.A. Rus musiqasi tarixi. Tos'hkent, «Musiqa», 2011. elektron<br>10. Music & culture in eighteenth-century Europe : a source book. Chicago 1994 https://archive.org/search?query=date:1994<br>11. W.A. Mozart: His life and work - An annotated bibliography https://www.academia.edu/19847927/W_A_Mozart_His_life_and_work_An_annotated_bibliography<br>12.Exploring the Musical Legacy of Franz Liszt<br>https://soundryo.com/articles/franz-liszt-musical-legacy/<br>13.Fransua Pikar .Music (17th and 18th centuries) https://www.researchgate.net/publication/32228061_Music_17th_and_18th_centuries<br>14. Sources on the history of Russian music of the 18th-19th centuries https://archive.org/search?query=subject%3A%22Music+--+Russia+--+18th+century+--+History+and+criticism%22<br>15. "История русской музыки" Многотомник  2017 г. в формате pdf https://vk.com/wall-99339872_6955<br>**X. Qo'shimcha adabiyotlar**.<br>16.Musiqa tarixi (Chet el musiqasi tarixi) [Matn] o'quv qo'llanma /<br>17. Tursunova R.O'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2024. - 124 b. file:///C:/Users/User/Downloads/1740999287.pdf<br>18. Mirhaydarova Z.M.  Jahon musia tarixi. Darslik. – Toshkent. Musiqa nashriyoti – 2023. 139-b.file:///C:/Users/User/Downloads/1737007514.pdf<br>19. **История музыки. Учебник .ЕМ Браудо 2017** https://avidreaders.ru/book/istoriya-muzyki-uchebnik.html.<br>Axborot manbaalari<br>ww.tdpu.uz<br>www.ziyonet.uz<br>www.edu.uz<br>tdpu-intranet.Ped |
| | Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. |
| | **Fan/modul uchun ma`sular:**<br>1. S.S. Rasulova – QDU Musiqa nazariyasi kafedrasi v.b. dosenti |
| | **Taqrizchi:**<br>1. D. Nosirov - QDU Musiqa ta`limi kafedrasi dotsenti.<br>2. Q. Fozilov- Qo`qon DU Musiqa nazariyasi kafedirasi katta o`qituvchisi |